

**ZOOLOGIYA INSTITUTI HUZURIDAGI ILMIY DARAJALAR
BERUVCHI DSc.02/30.12.2019.V.52.01 RAQAMLI ILMIY KENGASH**

O‘ZBEKISTON MILLIY UNIVERSITETI

XALILLAYEV SHERZOD ALIMBOYEVICH

**O‘ZBEKISTON TOG‘ VA TOG‘OLDI HUDUDLARI TO‘G‘RIQANOTLI
(INSECTA: ORTHOPTERA) HASHAROTLARI**

03.00.06 – Zoologiya

**BIOLOGIYA FANLARI DOKTORI (DSc) DISSERTATSIYASI
AVTOREFERATI**

Toshkent –2025

Fan doktori (DSc) dissertatsiyasi avtoreferati mundarijasi

Оглавление автореферата диссертации доктора наук (DSc)

Contents of dissertation abstract of doctor of science (DSc)

Xalillayev Sherzod Alimboyevich

O‘zbekiston tog‘ va tog‘oldi hududlari to‘g‘riqanotli (Insecta: Orthoptera) hasharotlari..... 3

Халиллаев Шерзод Алимбоевич

Прямкрылые насекомые (Insecta: Orthoptera) горных и передгорных зон Узбекистана..... 29

Khalillayev Sherzod Alimboyevich

Orthoptera (Insecta: Orthoptera) in mountain and sub-mountain regiones of Uzbekistan..... 55

E‘lon qilingan ishlar ro‘yxati

Список опубликованных работ
List of published works..... 59

**ZOOLOGIYA INSTITUTI HUZURIDAGI ILMIY DARAJALAR
BERUVCHI DSc.02/30.12.2019.V.52.01 RAQAMLI ILMIY KENGASH**

O‘ZBEKISTON MILLIY UNIVERSITETI

XALILLAYEV SHERZOD ALIMBOYEVICH

**O‘ZBEKISTON TOG‘ VA TOG‘OLDI HUDUDLARI TO‘G‘RIQANOTLI
(INSECTA: ORTHOPTERA) HASHAROTLARI**

03.00.06 – Zoologiya

**Biologiya fanlari doktori (DSc) dissertatsiyasi
AVTOREFERATI**

Toshkent –2025

Biologiya fanlari doktori (DSc) dissertatsiyasi mavzusi O'zbekiston Respublikasi Oliy ta'lim, fan va innovatsiyalar vazirligi huzuridagi Oliy attestatsiya komissiyasida B2024.2.DSc/B200 raqam bilan ro'yxatga olingan.

Dissertatsiya O'zbekiston Milliy universitetida bajarilgan.

Dissertatsiya avtoreferati uch tilda (o'zbek, rus, ingliz (rezyume)) Ilmiy kengashning veb-sahifasi (www.izoology.uz) hamda «ZiyoNet» Axborot-ta'lim portalida (www.ziynet.uz) joylashtirilgan.

Ilmiy konsultant:

Abdullayev Ikram Iskandarovich
biologiya fanlari doktori, professor

Rasmiy opponentlar:

Saparov Qalandar Abdullayevich
biologiya fanlari doktori, professor

Xusanov Alijon Karimovich
biologiya fanlari doktori, professor

Ganjayeva Lola Atanazarovna
biologiya fanlari doktori, dotsent

Yetakchi tashkilot:

Farg'ona davlat universiteti

Dissertatsiya himoyasi Zoologiya instituti huzuridagi ilmiy darajalar beruvchi DSc.02/30.12.2019.B.52.01 raqamli Ilmiy kengashning 2025-yil "04" aprel kuni soat 16⁰⁰ dagi majlisida bo'lib o'tadi (Manzil: 100053, Toshkent shahri, Bog'ishamol ko'chasi, 232 b-uy. Zoologiya instituti majlislar zali. Tel.: (+99871) 289-04-65, Faks: (+99871) 289-10-60; E-mail: zoology@academy.uz).


Dissertatsiya bilan Zoologiya instituti Axborot-resurs markazida tanishish mumkin (№1724-AR raqami bilan ro'yxatga olingan). Manzil: 100053, Toshkent shahri, Bog'ishamol ko'chasi, 232b-uy. Tel.: (+998) 71-289-04-65.


Dissertatsiya avtoreferati 2025-yil 20-mart kuni tarqatildi.

(2025-yil "20" martdagi №3 raqamli reyestr bayonnomasi).




B.R. Xolmatov
Ilmiy darajalar beruvchi ilmiy kengash
raisi, b.f.d., professor


G.S. Mirzayeva
Ilmiy darajalar beruvchi ilmiy kengash
ilmiy kotibi, b.f.d., professor


A.E. Kuchboyev
Ilmiy darajalar beruvchi ilmiy kengash
qoshidagi ilmiy seminar raisi, b.f.d.,
professor

KIRISH (fan doktori (DSc) dissertatsiyasi annotatsiyasi)

Dissertatsiya mavzusining dolzarbligi va zarurati. Bugungi kunda dunyo miqyosidagi iqlimning globallashuvi, cho'llanishning jadallashuvi va tabiiy landshaftlarning o'zgarishi entomofauna bioxilma-xilligining qisqarishiga olib kelmoqda. Ayniqsa, insoniyat XXI asrga kelib bir qator global ekologik, energetik va oziq-ovqat muammosiga duchor bo'ldi va uni jahon miqyosida hal qilish uchun bioxilma-xillik konvensiyasini ishlab chiqdi. Unga asosan sayyoramiz flora va faunasi yaxlitligini asrash orqali, tabiatni ayovsiz ekspluatatsiya qilishga chek qo'yish bilan insoniyatni global fojealardan saqlash imkoniyati yaratiladi. Bu esa birinchi navbatda, o'simlik va hayvonot olami turlar miqdorini tadqiq qilish, saqlash va ulardan oqilona foydalanishni belgilab beradi. To'g'riqanotli hasharotlar tabiatda keng tarqalgan bo'lib, ular oziqlanish tipiga asosan turli-tumanligi, biomassa miqdorining ko'pligi, turli statsiyalarda uchraganligi sababli, moddalarning tabiatda aylanishi va oziqa zanjirining shakllanishida muhim rol o'ynaydi¹. Shundan kelib chiqib, to'g'riqanotli hasharotlarni inventarizatsiyalash hamda tog' va tog'oldi hududlari ortopterafaunasining shakllanishini tadqiq qilish, ularga ta'sir etuvchi omillarni baholash hamda ularga qarshi kurash usullarini takomillashtirish muhim ilmiy-amaliy ahamiyat kasb etadi.

Jahonda to'g'riqanotli hasharotlar entomofaunasininig taksonomik tarkibini aniqlash, turli ekologik omillar ta'sirida hasharotlarning tabiiy va antropogen landshaftlarda tarqalishini baholash, kamayib borayotgan turlarini muhofaza qilish hamda zararli turlariga qarshi samarali kurash choralarini ishlab chiqish bo'yicha ilmiy izlanishlar olib borilmoqda. Bu borada, jumladan, tog' va tog'oldi hududlari to'g'riqanotli hasharotlar faunasining tur tarkibini aniqlash, ularning zoogeografik taqsimlanishini tahlil qilish, ekologiyasini asoslash, kamyob turlar va ular tarqalgan alohida ahamiyatga ega hududlarni aniqlash, elektron ma'lumotlar bazasini yaratish, qishloq ho'jaligiga va yaylov ekinlariga zarar keltiruvchi turlarini nazorat qilish usullarini takomillashtirishga qaratilgan tadqiqotlarga alohida e'tibor berilmoqda.

Respublikamiz hayvonot dunyosi bioxilma-xilligini aniqlash va ularni muhofaza qilish hamda kadastrini yuritishga alohida e'tibor qaratilmoqda. Bu borada amalga oshirilgan chora-tadbirlar natijasida, jumladan hasharotlarning tur tarkibi aniqlandi, ularning yo'qolib ketish havfi ostidagi turlari muhofaza ostiga olindi, zararli turlarga qarshi kurashning biologik asoslari bo'yicha bir qator tadqiqotlar olib borilgan va muayyan natijalar qo'lga kiritilgan. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019-yil 30-oktyabrdagi PF-5863-sonli "2030-yilgacha bo'lgan davrda O'zbekiston Respublikasining Atrof muhitni muhofaza qilish konsepsiyasini tasdiqlash to'g'risida"² Farmonida "Biologik xilma-xillikni saqlash muammolarini va biologik xavfsizlikning ilmiy asoslarini o'rganish" kabi ustuvor vazifalari belgilangan. Ushbu vazifalardan kelib chiqqan holda, respublikamizning tog' va tog'oldi hududlari to'g'riqanotli hasharotlari

¹ Birlashgan Millatlar Tashkilotining Oziq-ovqat va qishloq xo'jaligi tashkiloti (FAO) <https://www.fao.org>

² O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019-yil 30-oktyabrdagi PF-5863-sonli "2030-yilgacha bo'lgan davrda O'zbekiston Respublikasining Atrof muhitni muhofaza qilish konsepsiyasini tasdiqlash to'g'risida" Farmoni

taksonomik holatini aniqlash, zoogeografik taqsimlanishi, landshaftlararo tarqalishini va faunasining shakllanishini ochib berish va kamyob turlarni aniqlash hamda zararli turlariga qarshi kurash usullarini takomillashtirishga qaratilgan tadqiqotlar muhim ilmiy va amaliy ahamiyat kasb etadi.

O'zbekiston Respublikasining 2016-yil 19-sentyabrdagi "Hayvonot dunyosini muhofaza qilish va undan foydalanish to'g'risidagi" Qonuni, O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017-yil 4-sentyabrdagi PQ-3256-son "O'zbekiston Respublikasi Fanlar akademiyasi Botanika instituti va Zoologiya instituti faoliyatini tashkil etish chora-tadbirlari to'g'risida"gi Qarori hamda O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2018-yil 7-noyabrdagi 914-sonli "Hayvonot va o'simlik dunyosi ob'yektlarining davlat hisobini, ulardan foydalanish hajmlari hisobini va davlat kadastrini yuritish to'g'risida"gi va 2018-yil 5-sentyabrdagi 737-sonli "O'zbekiston Respublikasida atrof tabiiy muhitning davlat monitoringi tizimini takomillashtirish to'g'risida"gi Qarorlari hamda mazkur faoliyatga tegishli boshqa me'yoriy-huquqiy hujjatlarda belgilangan vazifalarni amalga oshirishga ushbu dissertatsiya tadqiqoti muayyan darajada xizmat qiladi.

Tadqiqotning respublika fan va texnologiyalari rivojlanishining ustuvor yo'nalishlariga mosligi. Mazkur tadqiqot respublika fan va texnologiyalar rivojlanishining V. «Qishloq xo'jaligi, biotexnologiya, ekologiya va atrof-muhitni muhofazasi» ustuvor yo'nalishiga muvofiq bajarilgan.

Dissertatsiya mavzusi bo'yicha xorijiy ilmiy-tadqiqotlar sharhi³. To'g'riqanotli hasharotlarning biologik xilma-xilligi, faunistik tarqalishi, bioekologiyasi va zoogeografiyasi hamda zararli turlarga qarshi kurashga qaratilgan ilmiy izlanishlar jahonning yetakchi ilmiy markazlari va oliy ta'lim muassasalari, jumladan, Universite de Limoges Limoges (Fransiya), University of Toronto Mississauga (Kanada), University of Wyoming (AQSH), University of Lincoln (Angliya), University of Trier (Germaniya) Institute of Zoology (Xitoy), Moskovskiy gosudarstvenniy universitet (Rossiya), Azim Premji University (Hindiston), Zoologiya instituti (Qozog'iston) va Zoologiya institutida (O'zbekiston) da olib borilmoqda.

To'g'riqanotli hasharotlarning tarqalishi, sistematikasi, xilma-xilligi, faunasi, bioekologiyasi, zoogeografiyasi va xo'jalik ahamiyatiga oid jahonda olib borilgan tadqiqotlar natijasida qator, jumladan, quyidagi natijalar olingan: to'g'riqanotlilarning tur tarkibi va zararli chigirtkalarining tarqalish areallari xaritalashtirilgan va ular populyatsiyasini nazorat qilishning GAT tizimi yaratilgan (University of Wyoming, AQSH); to'g'riqanotli hasharotlarning faunasi aniqlangan va taksonomiyasi asoslangan (University of Amsterdam, Gollandiya); tabiiy landshaftlarda to'g'riqanotlilarning zoogeografik tarqalish xususiyatlari ochib berilgan (Zoologiya instituti, Rossiya); to'g'riqanotlilarning molekulyar genetik tahlillari asosida ularning taksonomiyasi va sistematikasi isbotlangan (Novosibirsk davlat universiteti, Rossiya); to'g'riqanotlilar bioxilma-xilligini aks ettiruvchi lokal elektron ma'lumotlar bazasi yaratilgan hamda ularga qarshi

³ Dissertatsiyaning mavzusi bo'yicha ilmiy tadqiqotlar sharhi <http://www.works.doklad.ru>, www.dissercat.com, <http://www.researchgate.net>, <http://www.fundamental-research.ru>, www.webofscience.com va boshqa manbalar asosida ishlab chiqilgan.

biologik va kimyoviy kurash choralari ishlab chiqilgan (Zoologiya instituti, Qozog'iston).

Dunyoda to'g'riqanotli hasharotlar turkumiga mansub turlarining morfobiologiyasi, turli ekosistemalardagi bioxilma-xilligi, ekologik ahamiyati bo'yicha qator, jumladan, quyidagi ustuvor yo'nalishlarda tadqiqotlar olib borilmoqda: Orthoptera turkumi turlarini molekulyar-genetik tavsifini yaratish; turli hududlarda mazkur turkumning faunistik tarkibini asoslash; aniqlangan turlarning global gen bankini yaratish; turli ekosistemalarda to'g'riqanotli hasharotlar turkumining faunasi va turlar bioekologiyasini asoslash; kamyob turlarini *in situ* sharoitida ko'paytirish, zararli turlar populyatsiya dinamikasini oldindan bashorat qilish, ularning sonini boshqarish mexanizmlarini takomillashtirish, zararkunanda turlarga qarshi mikrobiologik preparatlar asosida takomillashtirilgan qarshi kurash choralari ishlab chiqish.

Muammoning o'rganilganlik darajasi. To'g'riqanotli hasharotlar faunasi, tur tarkibi, bioekologiyasini tadqiq qilish va ular tarqalgan geografik hududlarni asoslash hamda zararli turlarning populyatsiyalarini nazorat qilishga oid ma'lumotlarv xorijiy mamlakat olimlari S. Balamir (1952), V.Barus (1978), V.M. Dirsh (1991), P.A. Oliveira (2001), C. Lomer (2001), R.S.Barman (2003, 2004), B.Agabiti (2006), A.V. Lachininskiy va boshq. (1996, 2001, 2007, 2011), A.M. Fermin va boshq. (2013), D.Altanchimeg (2011, 2013), A. Hochkirch (2007-2016), S.K.Gupta (2017), B. Çıplak (1999, 2003, 2021, 2024) va boshqalar tomonidan bir qator tadqiqotlar olib borilgan.

MDH mamlakatlari miqyosidagi ortofterologik tadqiqotlarning tahlillari A.P.Fedchenko (1874), G.Sossyur (1874), L.L.Mishenko (1950), G.Ya.Bey-Bienko (1966), B.P.Uvarov (1910-1958), A.A.Bekuzin (1974), T.B.Tokgayev (1977), F.N.Pravdin (1980), M.G.Sergeev (1986), I.K.Lopatin (1989), M.K.Childebayev (1999, 2017) O.L.Krijanovskiy (2002), A.V.Lachininskiy (2010), S.Y.Storochenko (2017), Y.V.Ermakova (2022) va boshqalar tomonidan olib borilgan bo'lib, mualliflar turli hududlar to'g'riqanotli hasharotlarning faunistik tahlili, bioekologiyasi, zoogeografik tarqalishi shuningdek, yaylov va qishloq xo'jaligi ekinlari havfli zararkunanda turlariga qarshi kurash bilan bog'liq masalalarga e'tibor qaratishgan.

O'zbekiston tog' va tog'oldi hududlarida to'g'riqanotlilari faunasini o'rganishga oid alohida tadqiqot ishlari A.G.Davletshina (1949), L.L.Meshchenko (1951), A.A.Bekuzin (1974), Sh.K.Xudanov (1998), B.R.Xolmatov (2018), M.Q.Begjanov (2020), Z.R.Turayeva (2021), Sh.A.Xalilayev (2023) lar tomonidan olib borilgan. Zararkunanda to'g'riqanotli hasharot turlarini keng ko'lamda o'rganish va ularga qarshi kurash choralari N.E.Ergashev (1966), V.V.Kurdyukov (1987), A.V.Lachininskiy (2000), Sh.T.Xo'jayev (2014), A.A.Nurjanov (2016), M.V.Stolyarov (2000), F.A.Gapparov (2018), M.J.Medetov (2018) lar ishlarida aks etgan. To'g'riqanotli hasharotlar alohida turlarini o'rganish, ularning kadastr tizimini va elektron ma'lumotlar bazasini shakllantirishga qaratilgan tadqiqot natijalari M.J.Medetov (2018), B.R.Xolmatov (2019), A.A.Nurjanov (2019), A.F.Xaitmuratov (2019), M.K.Begjanov (2020), Z.R.Turayeva (2021) va Z.E.Izbosarova (2024) lar tomonidan keltirilgan.

Biroq, mazkur tadqiqot ishlari O‘zbekiston tog‘ va tog‘oldi hududlari to‘g‘riqanotlilar hasharotlari haqida to‘liq ma‘lumotlar bera olmaydi. Shunga ko‘ra, O‘zbekiston tog‘ va tog‘oldi hududlari to‘g‘riqanotli hasharotlarining tur tarkibini va taksonomik strukturasi aniqlash, hayotiy shakllarini tavsiflash, mintaqalar kesimida taqsimlanishi, tog‘ va tog‘oldi hududlari bo‘ylab vertikal tarqalishini, hayotiy shakllarining oziqlanish tipiga asosan turli-tumanligini ochib berish hamda zararli turlariga qarshi takomillashgan kurash usullarini amaliyotga tadbiq etish muhim ilmiy - amaliy ahamiyatga ega.

Tadqiqotning dissertatsiya bajarilgan ilmiy-tadqiqot muassasasining ilmiy-tadqiqot ishlari rejalari bilan bog‘liqligi. Dissertatsiya tadqiqoti O‘zbekiston Milliy universiteti ilmiy tadqiqot ishlari rejasiga muvofiq “O‘zbekiston hayvonot olami bioxilma-xilligini o‘rganish va muhofaza qilish” (2020-2024) mavzusidagi ilmiy tadqiqotlar dasturi doirasida bajarilgan.

Tadqiqotning maqsadi O‘zbekiston tog‘ va tog‘oldi hududi to‘g‘riqanotli hasharotlarning tur tarkibi, taksonomik strukturasi, ekologik xususiyatlari, zoogeografik taqsimlanishi va zararli turlarini nazorat qilish usullarini takomillashtirishdan iborat.

Tadqiqotning vazifalari:

O‘zbekiston tog‘ va tog‘oldi hududlari to‘g‘riqanotli hasharotlar faunasining tur tarkibini aniqlash va taksonomik tuzilishini tadqiq qilish;

O‘zbekiston tog‘ va tog‘oldi to‘g‘riqanotli hasharotlarining turli hududlar kesimida taqsimlanishini aniqlash;

O‘zbekiston tog‘ va tog‘oldi hududlari to‘g‘riqanotli hasharotlarining vertikal tarqalishini tadqiq qilish;

ushbu hududlarda tarqalgan to‘g‘riqanotli hasharotlarining hayotiy shakllarini tasvirlab berish;

to‘g‘riqanotlilarning zoogeografik tavsifi;

to‘g‘riqanotli hasharotlarning kadastr tizimini yuritish;

to‘g‘riqanotli hasharotlar faunasidagi kamyob turlarini muhofaza qilish;

zararli turlarini nazorat qilish usullarini takomillashtirish va tavsiyanomalar ishlab chiqish.

Tadqiqotning ob‘yekti sifatida O‘zbekiston tog‘ va tog‘oldi hududlari faunasiga oid to‘g‘riqanotli hasharot turlari olingan.

Tadqiqotning predmeti O‘zbekiston tog‘ va tog‘oldi hududlari to‘g‘riqanotli hasharotlarning faunasi, ekologik xususiyatlari, zoogeografiyasi, bioxilma-xilligi, kadastri va ularning zararli faoliyatini boshqarishda yangi kimyoviy preparatlarning samaradorligi hisoblanadi.

Tadqiqotning usullari. Dissertatsiyada zoologik, entomologik, zoogeografik, ekologik va matematik - statistik tahlil usullaridan foydalanilgan.

Tadqiqotning ilmiy yangiligi quyidagilardan iborat:

ilk bor O‘zbekiston tog‘ va tog‘oldi hududlari to‘g‘riqanotli hasharotlar faunasining hozirgi holati baholanib, 9 oila, 11 kenja oila va 69 avlodga mansub 134 tur qayd qilinib, shularning 13 avlod 18 turi temirchaklar katta oilasiga, 10 avlod 12 turi chirildoqlar katta oilasiga va 46 avlod 104 tur va kenja turlari chigirtkalar katta oilasiga mansubligi aniqlangan;

O'zbekiston faunasi uchun yangi tur sifatida to'g'riqanotli hasharotlar turkumiga oid temirchaklarning *Metrioptera* Wesmal, 1838 avlodi *Metrioptera brachyptera* (Linnaeus, 1761) va *Glyphonotus coniciplicus* (Uvarov, 1914) turlari, chigirtkalarining *Podisma* Berthold, 1827 avlodi *Podisma pedestris* (Linnaeus, 1758) turi aniqlangan.

to'g'riqanotli hasharotlarning vertikal tarqalishi va muhit ekologik sharoiti bilan o'zaro munosabatlarida konservativlik yuzaga kelishi va ozuqa yarusiga qarab areallarini o'zgartirib borishi isbotlangan;

O'zbekiston tog' va tog'oldi hududlari to'g'riqanotlilarining vertikal tarqalishi bo'yicha 5 ta balandlik mintaqalariga ajratilgan va turlarning etiologik adaptatsiyasi aniqlangan;

to'g'riqanotlilarning tabiiy va antropogen landshaftlardagi tarqalishiga asosan 6 ta tasnifi ishlab chiqilgan va hayotiy shakllari bo'yicha 21 guruhga ajratilgan;

O'zbekiston tog' va tog'oldi hududlarida to'g'riqanotli hasharotlarning zichlik miqdoriga asosan 5 ta guruhga ajratilgan hamda fenologik spektri bo'yicha 4 ta guruhi aniqlangan;

O'zbekiston tog' va tog'oldi hududlari to'g'riqanotli hasharotlarining kamyob va yo'qolib ketish havfi bo'lgan yoki endemik turlarini muhofaza qilish choralari va kadastri ishlab chiqilgan.

Tadqiqotning amaliy natijalari quyidagilardan iborat:

O'zbekiston tog' va tog'oldi hududlari to'g'riqanotli hasharotlarning miqdori eng kam bo'lgan 17 turlarini O'zbekiston Respublikasi "Qizil kitobi"ga kiritish bo'yicha tavsiyalar ishlab chiqilgan;

O'zbekiston to'g'riqanotli hasharotlari haqidagi axborotlarni saqlovchi, qidiruvchi va hisobotlarni tayyorlovchi funksiyalardan tashkil topgan ma'lumotlar bazasi yaratilgan;

O'zbekiston tog' va tog'oldi hududlarining to'g'riqanotli hasharotlari turlarning biologik xilma-xilligining boylik darajalari Sturges shkalasi asosida baholangan;

To'g'riqanotlilarni monitoring qilish davrida soni va zichligiga asosan eng ko'p miqdorda uchragan turlarining tabiatdagi trofik aloqalari ochib berilgan.

O'zbekiston tog' va tog'oldi hududlarida tarqalgan to'g'riqanotlilarning kadastr tizimi ishlab chiqilgan;

Asosiy zarar keltiruvchi to'g'riqanotli hasharotlarga qarshi yangi kimyoviy preparatlarning biologik samaradorligi aniqlanagan va yaylov atrofi hududlaridagi madaniy ekinzorlarga chigirtkalar tarqalishini oldini olish bo'yicha tavsiyanoma ishlab chiqilgan.

Tadqiqot natijalarining ishonchliligi. Dissertatsiya ishida klassik va zamonaviy usullarning qo'llanilganligi hamda ilmiy yondashuvlar, keng ko'lamli tahlillar asosida olingan natijalarni nazariy ma'lumotlarga mos kelishi, ularning halqaro va milliy nashrlarda e'lon qilinganligi, olingan natijalar asosida O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi huzuridagi Oliy attestatsiya komissiyasi ro'yhatiga kiritilgan ilmiy nashrlarda va Scopus, Web of Science xalqaro bazalari ro'yhatiga kirgan jurnallarda maqolalar chop etilganligi, tadqiqot natijalarning vakolatli davlat tuzilmalari tomonidan tasdiqlanganligi hamda

amaliyotga joriy etilganligi bilan izohlanadi.

Tadqiqot natijalarining ilmiy va amaliy ahamiyati. Tadqiqot natijalarining ilmiy ahamiyati O'zbekiston tog' va tog'oldi hududlarining to'g'riqanotli hasharotlarining biologik xilma-xilligining hozirgi holati baholanganligi, yangi faunistik ma'lumotlarning tahlil qilinganligi va populyasiyalarning balandlik mintaqalari bo'yicha tarqalishiga moslanishining asoslanganligi, ekofaunistik hududda yangi taksonomik birliklar qayd qilinganligi, hayot shakllariga asosan ekologik guruhlarining tavsiflanganligi, ushbu turkum hasharotlarining fenologik spektrlarining yoritilganligi, sodir bo'layotgan antropogen o'zgarishlarning to'g'riqanotli hasharotlari faunasiga ta'siri baholanganligi bilan izohlanadi.

Tadqiqot natijalarining amaliy ahamiyati O'zbekiston tog' va tog'oldi hududlari to'g'riqanotli hasharotlarining kam uchraydigan va endemik turlari tarqalgan hududlarni belgilash va ularni muhofaza qilish, jumladan, O'zbekiston "Qizil kitobi" ga kiritish uchun tavsiya qilish, raqamli ko'rsatgichlar asosida ma'lumotlar bazasini ishlab chiqish, kadastr tizimini yaratish, zararli to'g'riqanotlilarga qarshi yangi kimyoviy preparatlar yordamida kurash choralarini ishlab chiqish va takomillashtirishga xizmat qilishi bilan asoslanadi.

Tadqiqot natijalarning joriy qilinishi. O'zbekiston tog' va tog'oldi hududlari to'g'riqanotli (Insecta: Orthoptera) hasharotlari bo'yicha olingan ilmiy natijalar asosida:

O'zbekiston tog' va tog'oldi hududlari to'g'riqanotli hasharotlarning tarqalishini aks ettiruvchi GAT xaritasini yaratish, turlar populyasiyasining mavsumiy dinamikasi va kadastr ma'lumotlari bo'yicha ishlab chiqilgan tavsiyalar Ekologiya, atrof-muhitni muhofaza qilish va iqlim o'zgarishi vazirligida amaliyotiga joriy etilgan (O'zbekiston Respublikasi Ekologiya, atrof-muhitni muhofaza qilish va iqlim o'zgarishi vazirligining 2024-yil 20-martdagi 03-03/3-2712-son ma'lumotnomasi). Natijada O'zbekiston tog' va tog'oldi hududlari bo'ylab to'g'riqanotli hasharotlarning kamyob, doimiy yashovchi, indikator va o'rmon xo'jaligi zararkunanda turlarining tarqalishini aks ettiruvchi GAT xaritasini yaratish, ular populyasiyasining mavsumiy dinamikasini aniqlash hamda O'zbekiston tog' va tog'oldi hududlari to'g'riqanotli hasharotlarining kadastr ma'lumotlarini ishlab chiqish imkonini bergan;

To'g'riqanotli hasharotlarning tog' va tog'oldi hududlarida tarqalgan 17 ta kamyob turlarini muhofaza qilish va O'zbekiston Respublikasi "Qizil kitobi"ga kiritish bo'yicha ishlab chiqilgan tavsiyalar O'zbekiston Respublikasi Ekologiya, atrof-muhitni muhofaza qilish va iqlim o'zgarishi vazirligining Jizzax viloyati bo'limida amaliyotiga joriy etilgan (O'zbekiston Respublikasi Ekologiya, atrof-muhitni muhofaza qilish va iqlim o'zgarishi vazirligining 2024-yil 20-martdagi 03-03/3-2712-son ma'lumotnomasi). Natijada, O'zbekiston tog' va tog'oldi hududlari sharoitida tarqalgan 134 ta to'g'riqanotli hasharotlarning himoyaga muhtoj 17 ta turning populyatsiyalari holatini baholash va ularni saqlab qolish imkonini bergan.

To'g'riqanotli hasharotlar katta turkumiga tegishli bo'lgan 56 ta avlod, 97 tur va kenja turlariga mansub 97 nusxa hasharot namunalari O'zbekiston Respublikasi Fanlar akademiyasi Zoologiya instituti Noyob kolleksiyasi fondiga topshirilib, amaliyotiga joriy qilingan (O'zbekiston Respublikasi Fanlar Akademiyasining

2024-yil 12-fevraldagi №4/1255-314 sonli ma'lumotnomasi). Natijada, namunalar respublikaning turli hududlari bo'yicha hasharotlar fondini boyitgan va ular populyatsiyalari tarqalishining zamonaviy holatini baholash hamda interfaol atlaslar tayyorlash imkonini bergan;

Tog' va tog'oldi hududlarida tarqalgan zararli to'g'riqanotli hasharotlarga qarshi yangi kimyoviy preparatlari Jizzax viloyati G'allaorol tumani yaylovlar hududlarida amaliyotga joriy qilingan (O'zbekiston Respublikasi Qishloq xo'jaligi vazirligi huzuridagi Qishloq xo'jaligida bilim va innovatsiyalar Milliy markazining 2024-yil 19-apreldagi 05/05-04-152-son ma'lumotnomasi). Natijada, yaylov maydonlarida zararli to'g'riqanotli hasharotlarning tarqalish o'choqlarini aniqlash hamda ularga qarshi kurashda yangi istiqbolli kimyoviy preparatlarni qo'llash orqali yuqori biologik samaradorlikka erishish imkonini bergan.

Tadqiqot natijalarining aprobatsiyasi. Mazkur tadqiqot natijalari 2 ta halqaro va 11 ta respublika ilmiy-amaliy anjumanlarida muhokamadan o'tkazilgan.

Tadqiqot natijalarining e'lon qilinganligi. Dissertatsiya mavzusi bo'yicha jami 27 ta ilmiy ish chop etilgan bo'lib, O'zbekiston Respublikasi Oliy attestatsiya komissiyasi tomonidan doktorlik dissertatsiyalari asosiy ilmiy natijalarini chop etish uchun tavsiya etilgan ilmiy nashrlarda 13 ta maqola, jumladan, 11 ta respublika va 2 ta xorijiy ilmiy jurnallarda nashr qilingan.

Dissertatsiyaning tuzilishi va hajmi: Dissertatsiya tarkibi kirish, beshta bob, xulosalar va tavsiyalar, foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati va ilovalardan iborat. Dissertatsiyaning hajmi 200 betni tashkil etadi.


DISSERTATSIYANING ASOSIY MAZMUNI

Kirish qismida olib borilgan tadqiqotlarning dolzarbligi, zaruriyati asoslangan, tadqiqotning maqsad va vazifalari, ob'ekti va predmetlar, tadqiqot uslublari tavsiflangan, respublika fan va texnologiyalarni rivojlanishining asosiy ustuvor yo'nalishlariga mosligi ko'rsatilgan, tadqiqotning ilmiy yangiligi va amaliy natijalari bayon qilingan, olingan natijalarning ilmiy va amaliy ahamiyati ochib berilgan, tadqiqot natijalarini amaliyotga joriy qilinganligi, nashr etilgan ishlar va dissertatsiyaning tuzilishi bo'yicha ma'lumotlar keltirilgan.

Dissertatsiyaning **“O'zbekiston tog' va tog'oldi hududlari to'g'riqanotli hasharotlari faunasining o'rganilish holati”** deb nomlangan birinchi bobi ikkita bo'limdan iborat bo'lib, unda xorijiy va mamlakatimiz olimlari tomonidan O'zbekiston tog' va tog'oldi hududlari to'g'riqanotli hasharotlar tur tarkibi, faunasi, ekologiyasi, zoogeografiyasi va geografik tarqalish qonuniyatlari, zararli keltiruvchi turlar hamda ularga qarshi biologik va kimyoviy kurash choralarini ishlab chiqish borasida shu davrgacha olib borilgan tadqiqot ishlari natijalari va chop qilingan adabiyotlar tahlili keltirilgan. Bo'limda O'zbekiston tog' va tog'oldi hududlaridagi to'g'riqanotli hasharotlar tur tarkibi, bioekologiyasi va balandlik mintaqalari bo'ylab tarqalishi qonuniyatlari bo'yicha olib borilgan tadqiqot ishlari kam ekanligi, hozirgi zamon faunistikasini tasvirlab bera olmasligini hamda O'zbekiston tog' va tog'oldi hududlari to'g'riqanotli hasharotlarini keng doirada o'rganish kerakligi ochib berilgan.

Bobning ikkinchi bo'limida O'zbekiston tog' va tog'oldi hududlarida to'g'riqanotli hasharotlarini tadqiq qilish bo'yicha tadqiqot o'tkazilgan joyning tabiiy geografik sharoitlari, tog' va tog'oldi hududlar balandlik mintaqalari va ularning o'ziga hos xususiyatlari yoritib berilgan. Tadqiqot ishlari 2018-2024 yillar davomida olib borilgan bo'lib, O'zbekistonning turli balandlik mintaqalaridan yig'ilgan to'g'riqanotli hasharotlar turlari tahlil qilingan.

To'g'riqanotlilarning faunasini aniqlash uchun materiallar yig'ish ishlari belgilangan marshrutlar bo'yicha va belgilab olingan hududlarda o'tkazilgan (1-rasm). Buning uchun katta maydonni egallagan geografik hududlar, jumladan Samarqand, Surxondaryo, Qashqadaryo, Jizzax, Navoiy, Toshkent, Farg'ona, Andijon va Namangan viloyatlarining tog' va tog'oldi hududlari hamda qishloq xo'jalik ekinlari bilan band bo'lgan agrolandshaftlardan to'g'riqanotli hasharotlar namunalari yig'ilgan. Hasharotlar namunalarini yig'ish, ularning taksonomik holatini aniqlash va kolleksiya namunalarini tayyorlash tegishli usullarda olib borildi (Lachinskiy va boshqalar 2001; Sergeev, 1985; Pravdin, 1980; Mishenko, 1982).



1-rasm. O'zbekiston tog' va tog'oldi hududlari to'g'riqanotli hasharotlari yig'ilgan koordinatalarining xarita yordamida ifodalanishi.



-statsionar maydon, ■ - marshrutli maydon

Tadqiqot ishlari davomida lichinka va imago holatidagi 13721 tadan ortiq hasharot namunalari yig'ildi va o'rganildi. Dissertatsiyadagi olingan ma'lumotlarning matematik-statistik tahlili «Microsoft Excel» dasturi yordamida va statistik ishlovi G.F. Lakin (1990) metodi asosida amalga oshirildi.

Dissertatsiyaning **“O'zbekiston tog' va tog'oldi hududlari to'g'riqanotli hasharotlari faunasining tur tarkibi va taksonomik tavsifi”** deb nomlangan ikkinchi bobida O'zbekiston tog' va tog'oldi hududlarida olib borilgan tadqiqot natijasida yig'ilgan har bir turning taksonomik o'ri, ilmiy sinonim nomlari,

aniqlangan joyi va muddati, tarqalishi, zoogeografiyasi, ekologiyasiga ko'ra guruhlanishi to'g'risida ma'lumotlar batafsil keltirilgan. O'zbekiston tog' va tog'oldi hududlarida tarqalgan to'g'riqanotli hasharotlarning 9 oila, 11 kenja oila va 69 avlodga mansub 134 tur va kenja turi tarqalganligi birinchi bor qayd qilingan. Aniqlangan turlar soni, ularning taksonomik holati va taqsimlanishi quyida keltirilgan (1-jadval).


1-jadval

O'zbekiston tog' va tog'oldi hududlari to'g'riqanotlilar hasharotlari tur tarkibi va taksonomik taqsimlanishi

Oila	Kenja oila	Avlod soni	% hisobida	Tur soni	% hisobida
Tettigonidae	Phaneropterinae	1	1,4	1	0,7
	Tettigoninae	11	15,9	16	11,9
	Conocephalinae	1	1,4	1	0,7
Gryllidae	Gryllinae	6	8,7	6	4,5
	Nemobiinae	1	1,4	2	1,5
	Oecanthinae	1	1,4	1	0,7
Myrmecophilidae	-	1	1,4	1	0,7
Gryllotalpidae	-	1	1,4	2	1,5
Tridactylidae	Tridactylinae	1	1,4	2	1,5
Tetrigidae	Tetriginae	2	2,8	5	3,7
Pyrgomorphidae	-	1	1,4	2	2,5
Pamphagidae	Thrinchinae	5	7,2	7	5,2
Acrididae	Catantopinae	8	11,6	35	26,1
	Acridinae	29	42	53	39,5
9	11	69	100	134	100


Yuqorida keltirilgan ma'lumotlardan ma'lumki, to'g'riqanotlilarning son jihatdan eng katta sistematik birliklari quyidagilar: 13 avlod, 18 turi temirchaklar katta oilasiga, 8 avlod, 9 turi chirildoqlar katta oilasiga va 37 avlod 88 tur yoki kenja turlari chigirtkalar katta oilasiga mansub ekanligi ilk bor aniqlangan.

To'g'riqanotli hasharotlar avlodlari miqdorining oilalar bo'yicha taqsimlanishini tahlil qilinish ma'lumotlariga e'tibor berilsa, jami 69 ta avlodning 53,6% qismi haqiqiy chigirtkalar (Acrididae) oilasiga mansub ekanligini oydinlashadi. Temirchaklar - Tettigonidaie oilasi jami avlodlarining 18,8% qismini, chirildoqlar - Gryllidae oilasi avlodlarining ulushi 11,6%, Myrmecophilidae oilasi avlodning 1,4%, Gryllotalpidae oilasi avlodning 1,4%, Tridactylidae oilasi avlodlarining 1,4%, Tetrigidae oilasi avlodlarining 2,8%, Pyrgomorphidae oilasi avlodlarining 1,4%, Pamphagidae oilasi avlodlarining 7,2% qismini tashkil qilgan (2-rasm).



2-rasm. O‘zbekiston tog‘ va tog‘oldi to‘g‘riqanotli hasharotlari avlodlari turlar sonining oilalar kesimida taqsimlanishi.

Turlar miqdorining oilalar kesimida taqsimlanishi ko‘ra, turlar soni bo‘yicha tarkibida eng ko‘p Acrididae (88 tur; jami turlarning 65,6%) qilib, eng ko‘p miqdorda uchrashi aniqlandi. Tettigoniidaye (18; 13,3%) Gryllidae (9; 6,7%), Pamphagidae (7; 5,2%), Tetrigidae (5; 3,7%) oilasi nisbatan kam turlarni tashkil qilishi aniqlandi (3-rasm). Qolgan oilalar bo‘yicha taqsimlanish quydagicha ekanligi oydinlashadi: Pyrgomorphidae (2; 1,5%), Tridactylidae (2; 1,5%), Gryllotalpidae (2; 1,5%), Myrmecophilidae (1; 0,7%).



3 – rasm. O‘zbekiston tog‘ va tog‘oldi to‘g‘riqanotli hasharotlari turlar sonining oilalar kesimida taqsimlanishi.

Bulardan temirchaklarning bitta avlodi (*Metrioptera* Wesmal, 1838) va ikkita turi - *Metrioptera brachyptera* (Linnaeus, 1761) va *Glyphonotus coniciplicus* (Uvarov, 1914), chigirtkalarining bir avlodi (*Podisma* Berthold, 1827), 1 turi - *Podisma pedestris* (Linnaeus, 1758) O‘zbekiston faunasi uchun ilk bor aniqlandi.

Dissertatsiyaning **“To‘g‘riqanotli hasharotlarning bioxilma-xilligi**

monitoringi, faunistik tahlili va ekologik xususiyatlari” deb nomlangan uchinchi bobi to‘rtta bo‘limdan iborat bo‘lib, O‘zbekiston tog‘ va tog‘oldi hududlari to‘g‘riqanotli hasharotlarning bioxilma-xilligi monitoringi, faunistik tahlili, aniqlangan turlarning ekologik guruhlanishi, turlar fenologik spektrolari va mavsumiy dinamikasi haqida ma‘lumotlar keltirilgan.

Bobning birinchi bo‘limi “O‘zbekiston tog‘ va tog‘oldi hududlari to‘g‘riqanotli hasharotlarning bioxilma-xilligi monitoringi” ga bag‘ishlangan bo‘lib, O‘zbekiston tog‘ va tog‘oldi to‘g‘riqanotli hasharotlarini M.F.Pravdin, L.L.Mishenko (1980), I.K.Lopatin (1986), M.G.Sergeev (1986), O.L.Krijanovskiy (2001) kabi tadqiqotchilar tomonidan ishlab chiqilgan nazariyalar asosida bioxilma-xilligi monitoring natijalari keltirilgan. Shuningdek, uchrash miqdoriga asosan ularni tarqalishi va zichligi bo‘yicha dastlabki shartli belgilashlar qabul qilingan. To‘g‘riqanotlilarning taksonomik soni $S = 134$ ta, yig‘ilgan umumiy namunalar soni $N = 13721$ Sturgess formulasi bo‘yicha hisoblanganda, quyidagi $k = 9$ ballar soni uchun o‘lchov shkalasi hosil bo‘lgan (2 – jadval).

2-jadval

O‘zbekiston tog‘ va tog‘oldi hududi to‘g‘riqanotli hasharotlarining individlari boyligini ballar bo‘yicha taqsimlanishi

Turlar boyligi shkalasi	Namunalar soni	Turlar soni	%
I	1–2	8	6,0
II	3–6	13	9,7
III	7–14	47	35,1
IV	15–36	26	19,4
V	37–89	11	8,2
VI	90–219	11	8,2
VII	220– 538	10	7,5
VIII	539–1323	7	5,2
IX	1324 dan n gacha	1	0,7
Jami	$N = 13721$	134	100

Yig‘ilgan va aniqlangan turlar miqdori har xil nisbatdagi turlar boyligiga ega bo‘lib, ular quyidagicha taqsimlanadi: juda kam yoki yagona turlar 8 ta tur (jami turlarning 6,0% qismini,) noyob turlar 13 ta tur (jami turlarning 9,7% qismini), kam turlar 47 ta tur (jami turlarning 35,1% qismini), odatiy turlar 26 ta tur (jami turlarning 19,4 % qismini), ko‘p uchraydigan turlar 11 ta tur (jami turlarning 8,2% qismini), juda ko‘p uchragan 6, 7 va 8 shkalalar 28 ta turni (jami turlarning 20,8% qismini), 9 shkala yoki gala hosil qiluvchi 1 ta tur (jami turlarning 0,7% qismini) ni tashkil qilishi aniqlandi.

Yuqoridagi keltirilgan ma‘lumotlardan ko‘rinib turibdiki, turlarning boyligi jihatidan III - shkala bo‘yicha tarqalgan doimiy turlar populyatsiyasi miqdori yuqori hisoblanadi va turlari son nisbatan ko‘p miqdorda uchraydi. Bundan tashqari, biotoplarda turlar soni va zichlik miqdoriga asosan 56 turi (41,8%) doimiy tur va kenja turlar, 22 turi (16,4%) kam tarqalgan tur va kenja turlar, 17 turi (12,7%) juda kam tarqalgan tur va kenja turlar, 34 turi (25,3%) turi keng tarqalgan

va 5 turi (3,7%) gala hosil qiluvchi turlar hisoblanadi.

Mazkur bobning “O‘zbekiston tog‘ va tog‘oldi hududlari to‘g‘riqanotli hasharotlarining faunistik tahlili” deb nomlangan ikkinchi bo‘limida O‘zbekiston tog‘ va tog‘oldi hududlari to‘g‘riqanotli hasharotlarining faunistik tahlili hamda yangi aniqlangan turlar haqida keltirib o‘tilgan. To‘g‘riqanotlilar faunasining 2018 - 2024-yillar davomida O‘zbekiston tog‘ va tog‘oldi hududlaridan aniqlangan 134 ta turi asos sifatida olindi va turli darajadagi klaster tahlillar qilindi. O‘zbekiston tog‘ va tog‘oldi hududlarida aniqlangan 134 tur to‘g‘riqanotli hasharotlar orasidan 72 turi (53,7%) faqat tog‘li hududlarda yashashga evolyusion jihatdan adaptdatsiyalari shakllangan turlar hisoblanishi aniqlandi. Olib borilgan tadqiqot natijalariga ko‘ra, O‘zbekistonning tog‘ va tog‘oldi to‘g‘riqanotli hasharotlari faunasi va unga qiyoslanayotgan hududlarning biologik xilma-xilligining o‘xshashlik darajasi ko‘rsatgichlari quyidagi 3-jadvalda keltirilgan.

3-jadval


O‘zbekiston tog‘li hududlarda aniqlangan turlarning, boshqa hududlar turlari bilan o‘xshashlik darajasi va farqi (% hisobida)

Hududlar	Tog‘ va tog‘oldi hududlari	O‘zbekistonning arid hududlari	O‘zbekistonning janubiy hududlari	O‘zbekistonning sharqiy hududlari	O‘zbekistonning shimoli-sharqiy hududlari	O‘zbekistonning markaziy hududlar
Tog‘ va tog‘oldi hududlari	1	-	-	-	-	-
O‘zbekistonning arid hududlari	0,39	1	-	-	-	-
O‘zbekistonning janubiy hududlari	0,51	0,51	1	-	-	-
O‘zbekistonning sharqiy hududlari	0,40	0,50	0,47	1	-	-
O‘zbekistonning shimoli-sharqiy hududlari	0,27	0,29	0,32	0,32	1	-
O‘zbekistonning markaziy hududlari	0,45	0,56	0,60	0,44	0,28	1

Qiyoslanayotgan to‘g‘riqanotli hasharotlarning faunasining o‘xshashlik darajasi P.Jakkardning o‘xshashlik koeffitsiyenti yordamida aniqlandi: Bunda ko‘rinib turibdiki, O‘zbekistonning tog‘ va tog‘oldi hududlari to‘g‘riqanotlilari faunasi turlar tarkibi bo‘yicha O‘zbekistonning janubiy qismiga eng yaqin ($K_J=0,51$) ekanligi aniqlandi. Shuningdek, mos ravishda O‘zbekistonning markaziy hududlar bilan ($K_J=0,45$), O‘zbekistonning sharqiy hududlari faunasi bilan esa ($K_J=0,40$), O‘zbekistonning arid hududlari faunasi bilan esa ($K_J=0,39$), eng uzoq esa ($K_J=0,27$) O‘zbekistonning shimoli-sharqiy hududlar faunasi turlari

hisoblanadi. Shuningdek, togʻ va togʻoldi hududlari toʻgʻriqanotlilar hasharotlarini har tomonlama tadqiq qilish jarayonida Oʻzbekiston faunasi uchun ilk bor 3 ta yangi turi aniqlandi. Ular olib borilgan dala tadqiqotlar samarasi boʻlib, yangi faunistik maʼlumotlar hisoblanadi.

Bobning “Toʻgʻriqanotli hasharotlarning ekologik guruhlanishi” deb nomlangan uchinchi boʻlimida, Oʻzbekiston togʻ va togʻoldi hududlari toʻgʻriqanotli hasharotlari yashash makonining tuproq-edafik va iqlimiy sharoitidan kelib chiqib, biotsenozning boshqa tarkibiy qismlari bilan aloqasini aks ettirishda ularni bir-biridan farq qiluvchi jami 21 ta hayot shakllariga birlashtirilgan. Toʻgʻriqanotli hasharotlarining hayot shakliga koʻra, ekologik guruhlanishi boʻyicha har biri 24 ta turdan iborat fakultativ xortobiont va oʻsimlikxoʻr xortobiontlar; 19 turi eremobiont; 11 turi boshqoqli xortobiont; 7 turi tamnobiont; 6 turi fissurobiont va petribiontlar; 5 turi gerpetobiont; har biri 4 ta turdan – xortobiont va mikrotamnobiont, qatlamosti geofili va nafaol tamnobiontlar; 3 turi geobiont va ixtisoslashgan fitofillar; 2 turi – psammobiont, botrobiont va qiyq-boshqoqli xortobiont; har biri bitta turdan litobiont, kriptobiont, geofil va uchuvchi migrant ekanligi aniqlandi (4-rasm).




4-rasm. Oʻzbekiston togʻ va togʻoldi hududlari toʻgʻriqanotli hasharotlarining hayot shakliga asosan ekologik guruhlanishi.

Oʻzbekiston togʻ va togʻoldi hududlari toʻgʻriqanotli hasharotlarining hayot shakliga asosan, ekologik guruhlanishida turlarning miqdorining salmoqli qismini tashkil qiluvchilar fakultativ xortobiont, oʻsimlikxoʻr xortobiontlar, eremobiont va boshqoqli xortobiontlar hisoblanadi. Boshqa ekologik guruhlariga esa bittadan yettitagacha turlar taqsimlangan.

Bobning “Toʻgʻriqanotli hasharotlarning fenologik spektorlari va mavsumiy dinamikasi” deb nomlangan toʻrtinchi boʻlimida, Oʻzbekistonning togʻ va togʻoldi hududlari toʻgʻriqanotli hasharotlarining yilning turli mavsumlari kesimida uchrash darajasini B.P.Uvarov (1966) va G.Ya.Bey-Bienko (1951) taklif qilgan usullar

asosida fenologik spektrolari bo'yicha guruhlariga ajratilgan. O'zbekiston tog' va tog'oldi hududlarining to'g'riqanotli hasharotlari fenologik spektrolari bo'yicha 4 ta guruhga mansub bulib, ular imago va lichinka holida qishlovchi, erta bahorgi, bahor - yozgi hamda yoz - kuzgi guruhlariga mansub hisoblanadi (5-rasm).



5-rasm. O'zbekiston tog' va tog'oldi hududi to'g'riqanotlilarining fenologik spektrlari bo'yicha taqsimlanishi

O'zbekiston tog' va tog'oldi hududi to'g'riqanotlilarining fenologik spektrlari bo'yicha taqsimlanishiga ko'ra, ularning imago va lichinka holida qishlovchilari 48 tur (35,8%), erta bahorgilari 28 tur (20,8%), bahor – yozgilari 51 tur (38,05%) hamda yoz - kuzgilari esa 7 tur (5,2%) ni tashkil qildi. Yil fasllardagi iqlim o'zgarishlari, mazkur hudud to'g'riqanotlilarining fenologik rivojlanish davrlarining 50 kungacha kechikishiga olib kelishi mumkin.


Dissertatsiyaning to'rtinchi bobi **“O'zbekistonning tog' va tog'oldi hududlarida to'g'riqanotli hasharotlarining tarqalish xususiyatlari”** deb nomlangan bo'lib, unda O'zbekiston tog' va tog'oldi hududlari to'g'riqanotlilarining vertikal tarqalish xususiyatlari, to'g'riqanotli hasharotlarning turli landshaftlar bo'yicha tarqalishi, ular faunasining shakllanishida qo'riqxonalarining tutgan o'rni shuningdek, O'zbekiston tog' va tog'oldi hududlari to'g'riqanotlilarining zoogeografik tahlili haqida ma'lumotlar keltirilgan.

O'zbekiston tog'li hududlarida to'g'riqanotli hasharotlarning vertikal tarqalish xususiyatlarini aniqlash uchun 5 ta balandlik mintaqalarini tanlab olindi. Ular past tepaliklar sifatida mutloq balandligi 300 – 400 metr bo'lgan Qoratorov va Sulton-Uvaiztog'; qoldiq tog'lar sifatida balandligi 400 – 600 metr bo'lgan Bukontog', Kuljiktav, Kazaxtau, Jetimtau va Aristantav; adir yoki tog'oldi hududlar sifatida 900 metr balandlikgacha bo'lgan hududlar, o'rtacha balandlikdagi tog'larga 900 metrdan 2500 metrgacha bo'lgan hududlar va baland o'tloqli tog'larga ajratildi va ushbu balandlik mintaqalarida uchraydigan to'g'riqanotlilar tur tarkibi aniqlandi (6-rasm).

Tadqiqot natijalariga ko'ra, 300 – 400 metr balandlikda 42 ta tur (31,3%), 400 metrdan 600 metrgacha 57 ta tur (47,5); 600 metrdan 900 metrgacha 68 ta tur (50,7%), 900 metrdan 2500 metrgacha 107 ta tur (79,8) va 2500 metrdan baland

boʻlgan togʻlarda 94 ta tur (70,1%) toʻgʻriqanotli hasharotlar balandlik mintaqalarida tarqalgan. Eng koʻp uchraydigan turlar asosan oʻrtacha baland togʻlarda va baland togʻ oʻtloqlarida qayd qilindi. Bu ushbu hududlarda toʻgʻriqanotli hasharotlarning populyatsiyasi shakllanishi uchun qulay sharoit yuzaga kelishi bilan bogʻliq.

Togʻ toʻgʻriqanotlilari faunasini tadqiq qilish davomida faqat 1 ta tur - *Ptetica crustulata* Sauss., 1884. turi 400 metrdan yuqori boʻlgan balandliklarda tarqalmaganligi qayd qilindi. Qolgan jami 41 ta tur oʻziga xos tarzda turli balandliklar boʻyicha tarqalishi aniqlandi. Past-tepaliklarda toʻgʻriqanotlilar tur tarkibining son jihatdan kam uchrashi turli antropogen omillar bilan izohlanadi.



6-rasm. Toʻgʻriqanotlilarining vertikal tarqalishi xususiyatlari

Balandlik oʻlchami boʻyicha 400 metrdan 600 metrgacha boʻlgan hududlarda tarqalgan turlar umumiy faunaning 42,5% ni tashkil qiladi. Tarqalgan turlar ichida *Atrichotmethis semenovi* va *Thrinchus turcmenus* turlari mazkur balandlikgacha kirib bora olgan, xolos. Ushbu balandlik mintaqasi uchun hos boʻlgan birorta tur uchramaydi. Balandlik oʻlchami boʻyicha 400 metrdan 600 metrgacha boʻlgan hududlarda tarqalgan jami 55 tur turli balandlik mintaqalarigacha kirib boradi.


Belgilab olingan navbatdagi balandlik darajasi 600 metrdan 900 metrgacha boʻlgan hududlarda qayd qilingan toʻgʻriqanotlilar turlari umumiy faunaning 50,7% ni tashkil qiladi va bu balandlik mintaqasi uchun hos boʻlgan birorta tur uchramaydi. Ushbu turlar orasida 55 ta tur turli balandlik mintaqalarigacha kirib boradi va boshqa balandlik hududlarida ham uchratish mumkin.

Togʻli hududlarda toʻgʻriqanotlilarning tarqalish “markazi” ni tashkil qiluvchi balandligi 900 metrdan 2500 metrgacha boʻlgan oʻrtacha baland togʻlik hududlarda uchrovchi turlar umumiy toʻgʻriqanotlilar faunasining 79,8% ni tashkil qilgan. Mazkur guruhda qayd qilingan jami 107 turdan 75 turi keyingi balandlik mintaqasi - baland togʻ oʻtloqlari (2500 m dan balandan yuqori) tarqalganligi aniqlandi. Ushbu balandlik mintaqasi uchun hos boʻlgan quyidagi *Phaneroptera falcata*, *Platycleis intermedia intermedia*, *Eumetriopectera mistshenkoi*, *Glyphonothus*

thoracicus, *G. coniciplicus*, *Montana decticiformis*, *Modicogryllus pallipalpis*, *Gryllotalpa gryllotalpa*, *Pteronemobius heydeni concolor*, *Conophyma weberi*, *C. jakovlevi*, *C. jacobsoni*, *C. umnovi*, *C. zimini*, *Podisma pedestris*, *Aiolopus simulatrix*, *Eremippus persicus* turlar (17 ta tur) uchrashi qayd qilindi. Oʻrtacha baland togʻli hududlarda tarqalgan jami 29 turning tarqalish chegarasi ushbu balandlik mintaqasidan yuqori qismlarda uchramasligi aniqlandi. Bu holat mazkur turlarning oʻziga xos ekologik xususiyatlari va ozuqa bilan bogʻliq munosabatlari bilan uzviy bogʻliq.

Togʻli hududlarning eng baland choʻqqisi hisoblangan balandligi 2500 metr dan yuqori boʻlgan baland togʻ oʻtloqlari yaʼni alp togʻlarida jami 94 tur toʻgʻriqanotlilar ushbu balandlik mintaqasigacha tarqalgan. Bu balandlik mintaqasida tarqalgan toʻgʻriqanotlilar turlari togʻ va togʻoldi toʻgʻriqanotli hasharotlari umumiy faunasining 70,1% ni tashkil qildi. Ushbu balandlik mintaqasi uchun hos boʻlgan quyidagi *Eumetriopectera mistshenkoi*, *Tessellana vittata*, *Conophyma jakovlevi*, *C. berezhkovi*, *C. virgatum*, *C. mirabie*, *C. tarbinski*, *Calliptamus coelesyriensis carbonarius*, *Sphingonotus kirgizicus*, *Sph. nebulosus violascens*, *Stauroderus scalaris scalaris* turlar (11 ta tur) uchrashi aniqlandi.


Oʻzbekiston togʻ va togʻoldi hududlarning tabiiy va agrotsenozlarida qayd qilingan toʻgʻriqanotli hasharotlarning 117 turi (87,31%) yaylovzorlarda; 115 turi (85,82%) qoʻriqxonalarda; oʻrtacha balandlikdagi togʻlarda 64 turi (47,76%); toshli choʻllarda 54 turi (40,29%); mayda toshli tuproqlarda 50 turi (37,31%) va agrotsenozlarda 84 turi (62,68%) tarqalgan (7-rasm).



7-rasm. Oʻzbekiston togʻ va togʻoldi hududlari toʻgʻriqanotli hasharot turlarining mintaq va landshaftlar boʻyicha taqsimlanishi

Togʻ va togʻoldi hududlarining toʻgʻriqanotli hasharot turlarining agrolandshaftlar boʻyicha taqsimlanishi 8-rasmda keltirilgan. Tahlil natijalariga koʻra, toʻgʻriqanotlilarning 84 turi turli agrotsenozlarda tarqalgan. Jumladan, gʻalla ekinzorlarida 46 tur (54,76%) bedazorlarda 66 tur (78,53%), poliz sabzavot ekinlarida 47 tur (55,95%), bogʻlarda 61 tur (72,61%), makkajoʻxori ekinzorlarida 38 tur (45,23%) va dukkakli ekin maydonlarida 43 tur (51,19%) toʻgʻriqanotli

hasharotlarning populyatsiyalari shakllangan. Ushbu aniqlangan to'g'riqanotlilarning 28 turi (33,33%) agrosenozda doimiy tur, 22 ta turi (26,19%) agrosenozda keng tarqalgan tur va 34 ta turi (40,47%) agrosenozda kam tarqalgan turlar hisoblanadi.



8-rasm. O'zbekiston tog' va tog'oldi hududlari to'g'riqanotli hasharot turlarining agrolandshaftlar bo'yicha tarqalishi


Tadqiqot olib borilgan agroekosistemalar komplekslarida qishloq xo'jalik ekinlarining zararkunadasi bo'lgan *Pyrgomorpha bispinosa deserti*, *Calliptamus barbarus cephalotes*, *Duroniella kalmyka*, *D. gracilis*, *Aiolopus thalassinus*, *Acrotylus insubricus*, *Dociostaurus (s.str.) maroccanus* turlari yuqorida keltirilgan barcha agrosenozlarda keng tarqalgan bo'lib, zichligi ancha yuqori ekanligi aniqlandi. Shunday qilib, agrosenoz komplekslarida turli abiotik omillarning to'g'riqanotlilar ko'payishi uchun qulay sharoitni yuzaga keltirishiga qaramay, agrosenozlarda antropogen omillar ta'sirining yuqori bo'lishi, bu hududlarda to'g'riqanotlilar populyatsiyasi miqdorini cheklab turadi.

Olingan ma'lumotlar natijalariga asosan, geografik joylashuvi tog' va tog'oldi hududlari xisoblangan qo'riqxonalarda uchraydigan to'g'riqanotlilarning turlari soni umumiy hisobda 115 tani tashkil qilishi aniqlandi. Aniqlangan turlarning "Chotqol" davlat biosfera qo'riqxonasida 93 turi (87,31%), "Zomin" davlat qo'riqxonasida 95 turi (80,86%), "Nurota" davlat qo'riqxonasida 64 turi (55,65%), "Hisor" davlat qo'riqxonasida 75 turi (65,21%), "Kitob" geologik milliy tabiat bog'ida 94 turi (81,73%) va "Surxon" davlat qo'riqxonasida 63 turi (81,73%) uchraydi (9-rasm).

Tog' va tog'oldi hududlaridan juda kam miqdorda aniqlanib, O'zbekiston Respublikasi "Qizil kitobi"ga kiritish uchun tavsiya qilingan jami 17 ta turining 15 ta turi ham qo'riqxonalarning turli tabiiy biotoplarida uchrashi aniqlandi.

O'zbekiston Respublikasi "Qizil kitobi"ga kiritish uchun tavsiya qilingan to'g'riqanotlilarning "Chotqol" davlat biosfera qo'riqxonasida *Phaneroptera falcata*, *Glyphonotus alactaga*, *Pteronemobius gracillis (Stenonemobius) gracilis*,

